“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=283

2025-yil
1-son
aprel



Iqtisodiyotni rivojlantirishda shartnomalarning o‘rni va ahamiyati

Bobir Xolmurodov,
Sudyalar oliy maktabi
tinglovchisi
e-mail: xolmurodov@gmail.com

Аннотация. Iqtisodiyotni rivojlantirishda shartnomalarning o‘rni va ahamiyati katta. Shartnomalar iqtisodiy faoliyatda muhim vosita bo'lib, ular xususiy va davlat sektorlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi va ko'plab iqtisodiy jarayonlarning amalga oshirilishini ta'minlaydi. Shartnoma asosida bajarilgan kelishuvlar o'zaro majburiyatlar va huquqlarni aniq belgilab, tomonlarning ishonchini oshiradi. Iqtisodiy shartnomalar, ayniqsa, savdo, xizmat ko'rsatish, investitsiya va ishlab chiqarish sohalarida samarali rivojlanishga yordam beradi.Shartnomalarning ahamiyati shundaki, ular iqtisodiyotni barqarorlashtirish va taraqqiyotga erishish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi, shuningdek, huquqiy tizimni rivojlantirishda o'zining mustahkam o'rnini egallaydi.

Калит сўзлар. Иқтисодиёт, ҳуқуқлар, инвестиция

Аннотация. Роль и значение договоров в развитии экономики огромны. Договоры являются важным инструментом в экономической деятельности, они регулируют отношения между частным и государственным секторами и обеспечивают осуществление многих экономических процессов. Договорные соглашения четко определяют взаимные обязательства и права, повышая доверие сторон. Экономические соглашения способствуют эффективному развитию, особенно в сфере торговли, услуг, инвестиций и производства.Значение договоров заключается в том, что они создают необходимые условия для стабилизации экономики и достижения прогресса, а также занимают прочное место в развитии правовой системы.

Ключевые слова. Экономика, права, инвестиции

Annotation. Contracts play an important role in the development of the economy. Contracts are an important tool in economic activity, regulating relations between the private and public sectors and ensuring the implementation of many economic processes. Agreements executed on the basis of the contract clearly define mutual obligations and rights, increasing the trust of the parties. Economic agreements contribute to effective development, especially in the spheres of trade, services, investment, and

production.The significance of contracts lies in the fact that they create the necessary conditions for stabilizing the economy and achieving progress, and also occupy a firm place in the development of the legal system.

Keywords. Economics, rights, investment

Iqtisodiyotni rivojlantirishda shartnomalarning o‘rni va ahamiyati katta. Shartnomalar iqtisodiy faoliyatda muhim vosita bo'lib, ular xususiy va davlat sektorlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi va ko'plab iqtisodiy jarayonlarning amalga oshirilishini ta'minlaydi. Shartnoma asosida bajarilgan kelishuvlar o'zaro majburiyatlar va huquqlarni aniq belgilab, tomonlarning ishonchini oshiradi. Iqtisodiy shartnomalar, ayniqsa, savdo, xizmat ko'rsatish, investitsiya va ishlab chiqarish sohalarida samarali rivojlanishga yordam beradi.

Shartnomalarning ahamiyati shundaki, ular iqtisodiyotni barqarorlashtirish va taraqqiyotga erishish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi, shuningdek, huquqiy tizimni rivojlantirishda o'zining mustahkam o'rnini egallaydi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish va bozor mexanizmlarini keng joriy qilish tamoyillariga asoslangan islohotlarning yangi bosqichida davlatning iqtisodiyotdagi rolini kamaytirish va xususiy sektorning ishtirokini kengaytirish bo‘yicha bugungi kunda iqtisodiyotni boshqarishning aniq, shaffof va natijaga yo‘naltirilgan mexanizmini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Iqtisodiyotini rivojlantirish uchun nazariyachi olimlar bir qancha o’z fikrlarini bildirishgan. Xususan, amerikalik iqtisodchi Jon Meynard Keyns soliq multiplikatori nazariyasini ishlab chiqib, davlat harajatlari va shartnomalar orqali iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantirish mumkinligini ta’kidlagan. Uning fikricha, davlat tomonidan tuzilgan shartnomalar va sarflangan mablag‘lar iqtisodiy o‘sishga olib kelishini bildirgan.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisod fanlari doktori, professor B.Y. Xodiyevning fikricha, oliy ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish va innovatsion-korporativ hamkorlik aloqalarini jadallashtirish orqali iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkinligin, bu borada, oliy ta’lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot institutlari va ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasida xo‘jalik shartnomalarini tuzish muhim ahamiyatga ega. Bunday hamkorlik ilmiy tadqiqotlarning natijalarini amaliyotga joriy etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va innovatsion rivojlanishni ta’minlashga xizmat qilishini ta’kidlagan.

Shuningdek, iqtisodchi olim Hasan Abulqosimov milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda tadbirkorlikning o‘rni va ahamiyatini ta’kidlaydi. Uning fikricha, tadbirkorlikka qulay investitsion iqlim va ishbilarmonlik muhitini yaratish iqtisodiy rivojlanishning muhim omili ekanligi haqida fikr bildirgan.

Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi J.Jo‘rayev qishloq xo‘jaligida innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida

shartnomalarning ahamiyatini ta’kidlaydi. Uning fikricha, qishloq xo‘jaligi sohasidagi sub’ektlar o‘rtasidagi shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish orqali innovatsiyalarni joriy etish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish mumkinligini bildirgan.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlar bo‘yicha nazariyachi olimlar shartnomalar turli mezonlarga ko‘ra tasniflagan. Tovarlar oldi-sotdi shartnomalari (mahsulot yetkazib beris shartnomasi, chakana savdo, ulgurji savdo), ish va xizmatlar ko‘rsatish shartnomalari (pudrat, transport xizmatlari, yuridik xizmatlar), ijara shartnomalari (ko‘chmas mulk ijarasi, transport vositalari ijarasi), moliyaviy shartnomalar (kredit, qarz, lizing), sug‘urta shartnomalari, hadya (sovg‘a qilish) shartnomalari, intellektual mulk obyektlariga oid shartnomalar (mualliflik huquqlari, patentlar, litsenziya shartnomalari), sheriklik va hamkorlik shartnomalari (qo‘shma korxona tuzish, konsessiya), ishlab chiqarish va kooperatsiya shartnomalari (franchayzing, distribyutorlik) kabi turlarga bo’lishgan.

Albatta iqtisodiyotni rivojlantirishda yuqoridagi shartnomalardan tashqari davlat tomonidan yaratib berilgan soliq, bojxona, investitision va boshqa sohalarni rivojlantirishga oid qonunchilik asoslari muhim rol o’ynaydi.

Iqtisodiy munosabatlar fuqarolik qonunchiligida belgilangandek, mulkchilikning turli shakllari, shu jumladan, xususiy mulk shakli negiziga qurilgan bo‘lib, tovar-pul munosabatlari tizimida boshqaruvning demokratik usullari qo‘llaniladigan jamiyatda shartnoma o‘z tabiati, mazmuni va ko‘zlagan maqsadiga ko‘ra uning teng huquqli ishtirokchilari o‘rtasida qiymat, ekvivalentlilik va haq evaziga amalga oshirishga doir munosabatlarning yuridik tartibiga solish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Shartnoma huquqiy tartibga solish vositalari ichida eng universal, demokratik vosita hisoblanadi.

Shartnomalar orqali huquqiy munosabat tartibga solinganda, undagi barcha ishtirokchilarning manfaati eng ko‘p darajada ta’minlangan bo‘ladi. Odatda har qanday shartnoma ixtiyoriylik asosda vujudga keladi va shartnomalarda huquq va majburiyatlarni belgilashda mulkiy manfaatlar va shaxsiy ne’matlarni taqsimlashda o‘ziga xos muvozanat, uyg‘unlik o‘z mujassamini topadi.

Garchi shartnomalar qadim-qadimdan fuqarolik huquqida, oila huquqida, mehnat huquqida va xalqaro huquqda qo‘llanilib kelinayotgan bo‘lsa ham, bugungi kunga kelib bozor iqtiosdiyotiga o’tishda shartnomalar muhum ahamiyatga эga.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 8-moddasi talabiga ko‘ra, shartnomalar taraflar o‘rtasida fuqarolik huquq va burchlari vujudga kelishining asoslaridan biridir. Shubhasiz, bugungi kunda iqtisodiyotni rivojlantirishda shartnomalarga alohida ahamiyat berilmoqda. Chunki shartnomalarda boshqa yuridik faktlarga qaraganda, taraflarning erki-irodasi to‘la ifodalanadi.

Shartnomaga kirishuvchi shaxslar kim bilan, qancha, qachon shartnoma tuzishni u tufayli yetkazib berilishi lozim bo‘lgan pul, tovar, ashyolarni qaysi muddatlarda, qanday transportlarda yetkazilishini, to‘lov amaldagi qanday shakllarda bo‘lishini mutlaqo o‘zlari, mustaqil hal qiladilar. Ular shartnomalar tuzishda erkindirlar.

Shartnoma erkinligi tamoyilining mazmuni FKning 354-moddasida mustahkamlab qo‘yilgan. Unga ko‘ra, fuqarolar va yuridik shaxslar shartnoma tuzishda erkindirlar. Hech kim taraflarni shartnoma tuzishga majbur qila olmaydi. Shu sababli shartnoma yuridik shaxslarning o‘z xohishiga ko‘ra, o‘z erki irodasi bilan tuziladi.

Albatta, ularni shartnoma tuzishga undovchi sabablar (motiv) turlicha bo‘lishi mumkin: o‘z ehtiyojlarini qanoatlantirish, foyda olishga intilish, ta’sis hujjatlarida belgilab qo‘yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish va h.k.

Shartnomalar ijro va to‘lov intizomini kuchaytiradi, taraflarning faoliyatini har tomonlama taraflarning barqarorligini ta’minlaydi. Bu esa, shartnomalar asosida iqtisodiyotni rivojlantirishda zamin bo’lib xizmat qiladi.

Qonun chiqaruvchi hokimiyatimiz tomonidan shartnomalar tuzish va bajarishni ta’minlash maqsadida 1998 yil 29-avgustda “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi, bu esa tadbirkorlik sub’ektlarining xo’jalik shartnomalarini tuzish asoslari, mahalliy va davlat boshqaruv organlarining shartnoma munosabatdagi vakolatlari, agar taraflar shartnomada javobgarlik masalalarini belgilamagan bo’lsa, uning ijrosi bo’yicha taraflarning javobgarlik chegarasini belgilashga xizmat qildi.

Shartnomalarning milliy iqtisodiyotga ta'sirini o'rganishda, u iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi, chunki ular biznes va savdo aloqalarini tartibga soladi. Ularning amalga oshirilishi yoki buzilishi milliy iqtisodiyotda salbiy yoki ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shartnomalar orqali investitsiyalarni rag'batlantirish yoki tijorat faoliyatining samaradorligini oshirish mumkin.

Shartnomalarning iqtisodiyotga ta'sirini o'rganish, mehnat bozoridagi o'zgarishlarni va yangi ish o'rinlarini tahlil qilish imkonini beradi. Shartnomalar huquqiy tizimning muhim qismi bo'lib, ular ijtimoiy va iqtisodiy aloqalarni yanada ishonchli qilishga yordam beradi. Huquqiy aniq shartnoma tizimi mavjud bo'lsa, bu biznesda xavf-xatarlarga qarshi kurashish imkonini beradi va iqtisodiy faoliyatni tartibga soladi.

Shartnomalar taraflar o'rtasida huquqiy majburiyatlarni aniq belgilaydi, bu esa iqtisodiy faoliyatni ishonchli va tartibli qiladi, iqtisodiy jarayonlarni soddalashtiradi, chunki ular amalga oshiriladigan faoliyatni aniq belgilaydi. Bu, o'z navbatida, resurslarni samarali taqsimlashga yordam beradi va bozorning tez rivojlanishini ta'minlaydi.

Shuningdek, xalqaro miqyosda shartnomalar biznes va savdo aloqalarini rivojlantiradi. Mamlakatning esa iqtisodiy rijovlanishida

katta rol o’ynaydi. Misol uchun, tovarlar va xizmatlar almashinuvi, shuningdek, investitsiya va texnologiyalarni import qilishni osonlashtiradi. U mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy aloqalar o'rnatishda asosiy huquqiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, shartnomalar iqtisodiy tizimda ishonchni, barqarorlikni va samaradorlikni ta'minlashga yordam beradi, bu esa iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga olib keladi.

Statistika agentligi dastlabki ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda Qoraqalpog‘iston R. — 681,6 mln, Andijon viloyati — 4,2 mlrd, Buxoro viloyati — 1,3 mlrd, Jizzax viloyati — 2 mlrd, Qashqadaryo viloyati — 1,1 mlrd, Navoiy viloyati — 1,6 mlrd, Namangan viloyati — 1,3 mlrd, Samarqand viloyati — 3 mlrd, Surxondaryo viloyati — 416,1 mln, Sirdaryo viloyati — 675 mln, Toshkent viloyati — 5,9 mlrd, Farg‘ona viloyati — 2,1 mlrd, Xorazm viloyati — 857 mln va Toshkent shahri — 25,3 mlrd (barchasi AQSH dollari) kesimida tashqi savdo aylanmasini tashkil qilgan.

Bugungi kunga kelib O‘zbekiston jahonning 198 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirilib kelmoqda. 2024-yilda savdo aylanmasida yuqori ulushga ega bo‘lgan hamkor davlatlar (AQSH dollarida): Xitoy — 12,5 mlrd; Rossiya — 11,6 mlrd; Qozog‘iston — 4,3 mlrd; Turkiya — 2,9 mlrd; Koreya — 2 mlrd; Germaniya — 1,2 mlrd; Turkmaniston — 1,1 mlrd; Afg‘oniston — 1,1 mlrd; Fransiya — 1,1 mlrd va Hindiston bilan 980 mln AQSH dollarga yetib borgan.

Prezidentimizning 2023-yil 10-noyabrdagi “Kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF193-sonli Farmoni bilan Iqtisodiyot va moliya vazirligi ta’sischiligida “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati shaklida qayta tashkil qilindi.

Shu munosabar bilan 2025- yil 1- fevral holatiga ro‘yxatdan o‘tgan oilaviy korxonalar soni 69 646 tani tashkil qildi.

Ular iqtisodiy faoliyati bo’yicha, ya’ni savdo sohasida – 23 352 ta, sanoat sohasida – 20 032 ta, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida – 11 810 ta, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi sohasida – 7 061 ta, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish sohasida – 821 ta, tashish va saqlash sohasida – 621 ta, qurilish sohasida – 618 ta, axborot va aloqa sohasida – 494 ta va boshqa sohalarda – 4 837 ta tashkil qilgan.

Bundan tashqari Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil 1-fevral holatiga faoliyat yuritayotgan chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 15 163 tani tashkil etdi.

Ulardan eng yuqori ulushga ega bo‘lgan Xitoy – 3 467 ta, Rossiya – 2 973 ta, Turkiya – 1 869 ta, Qozog‘iston – 1 060 ta, Janubiy Koreya – 660 ta, AQSH - 303 tani tashkil qiladi.

Iqtisodiyotni rivojlantirishda xizmatlar ko’rsatish sohasini ham rivojlantirish lozim bo’ladi. Bu bo’yicha qonunchilik sohasi ham tizimlashtirilgan.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev raisligida 2025-yil 7 fevral kuni hududlarda xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishida xizmatlar miqdori 2018 yildagi 19

milliard dollardan 65 milliard dollarga oshgani, ayniqsa, axborot texnologiyalari, moliyaviy xizmatlar, turizm, aviatsiya, ta’lim va tibbiyot sohalarida “katta sakrash” bo‘lganligini, so‘nggi yetti yilda aholi daromadi va to‘lov qobiliyati 2 karra o‘sgani natijasida xizmatlarga talab ortayotgani qayd etildi. Buning uchun vazirlar va hokimlar xizmat turlarini ko‘paytirish bo‘yicha har kuni izlanib, tadbirkorlarga yo‘l ochishi kerakligi ta’kidlandi.

Albatta, iqtisodiyotni rivojlantirishda haq evaziga xizmat ko’rsatish shartnomasining o’rni bor. So’ngi yillarda ichki va tashqi turizmni rivojlantirish orqali haq evaziga xizmat ko’rsatish shartnomasi rivojlanib bormoqda.

Samarqand, Shahrisabz, Buxoro, Xiva va Toshkentdagi turistik majmualarda xalqaro konsert va forumlar o‘tkazish ko‘pchilikni o‘ziga tortadi. Tashrif buyuruvchilar mehmonxona, restoran, savdo va boshqa ko‘ngilochar maskanlarga ham mijoz bo‘ladi.

Xususan, 2024-yilda Ispaniyadan O‘zbekistonga kelgan turistlarning 21 576 nafari sayohat, 1 069 nafari xizmat yuzasidan, 10 nafari tijorat, 8 nafari o‘qish va 1 nafari davolanish, shuningdek, Angliyadan O‘zbekistonga kelgan turistlarning 17 583 nafari sayohat, 1 267 nafari xizmat yuzasidan, 82 nafari tijorat, 64 nafari o‘qish va 9 nafari davolanish uchun tashrif buyirgan.

Xalqaro darajada shartnomaviy munosabatlar ancha rivojlangan bo‘lib, xususan, Xitoyda shartnomalarning huquqiy kuchi juda qat’iy bo‘lib, har bir biznes kelishuvi yozma ravishda mustahkamlanadi va davlat tomonidan qat’iy nazorat qilinadi. Shartnomaviy intizom korxonalarning ishonch reytinglariga ham bevosita ta’sir qiladi.

Germaniyada shartnomaviy huquq har bir iqtisodiy munosabatning asosi sifatida qaraladi. Har bir kompaniyada ichki huquqiy xizmat bo‘limi faol ishlaydi va u shartnomalarning barcha jihatini chuqur o‘rganadi.

Xulosa qilib aytganda, shartnomalar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda muhim huquqiy vosita hisoblanadi. Ular xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solib, ishonchli hamkorlik, moliyaviy barqarorlik hamda investitsiya muhitining yaxshilanishiga xizmat qiladi. Shartnomaviy munosabatlarning rivojlanishi esa nafaqat korxonalarning samarali faoliyat yuritishini ta’minlaydi, balki umumiy iqtisodiy o‘sishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, shartnomalarning aniq va huquqiy asosda tuzilishi xo‘jalik yurituvchi subyektlarni nizolardan himoya qiladi, xavf va tavakkalchiliklarni kamaytiradi. Shu sababli, iqtisodiy munosabatlarda ishtirok etayotgan barcha tomonlar uchun shartnomaviy madaniyatni rivojlantirish, huquqiy savodxonlikni oshirish va amaldagi qonunchilikka asoslangan tarzda faoliyat yuritish dolzarb ahamiyatga ega.